



1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 6-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN TAVALLUDIGA 224 YIL

Ushbu sonda



TILSHUNOSLIK

Kelishik va ko'makchilar
vazifadoshligi

4-
bet



TAHLIL

Navoiy yodga olgan
shoiralar

15-
bet



TADQIQOT

Ikrom Otamurod
dostonlarida ijodkor
dunyoqarashi va lirik
qahramon muammosi

22-
bet



ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Совершенствование
системы тренингов
по обучению русскому
языку

84-
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.

6-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liq SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.30.05. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Arial» garnituras. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

SHANDOR PETEFI TAVALLUDINING 200 YILLIGIGA

Asror Mo'min. Ozod qalb tug'yonlari 3

TILSHUNOSLIK

Ra'no Davlatova, Nafisa Musayeva. Tilshunoslikda bolalar nutqining o'rganilishi 4
Dilfuza Pulatova. Kelishik va ko'makchilar vazifadoshligi 5

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Dilshod Muhitdinov. Proposals for the improvement of English language education 7
Farangiz Mamedova. Innovative methods in teaching foreign language 9
Marg'uba Siddiqova. Xitoy iyerogliflarini o'rgatish bo'yicha uslubiy tavsiyalar 10
Umida Madaminova. Interaction patterns in online and offline classroom 13

TAHLIL

Iqboloy Adizova. Navoiy yodga olgan shoirlar 15
Shoira Hoshimova. "G'aybning ikkinchi sayohati" qissasida psixologik tahlil 17
Dilafroz Rahmatova. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asari va uning til xususiyatlari 19
Fazliddin G'aniyev. Nemis adabiyotida masal janri poetik takomili 21

TADQIQOT

Salima Jumayeva. Ikrom Otamurod dostonlarida ijodkor dunyoqarashi va lirik qahramon muammosi 22
Mahbuba Tojiboyeva, Alisher G'oziyev. Nazir Ali Sayyidning "Lo'g'ate chig'atoyi beforasi" lug'ati 25
Baurjan Sayfullayev. Dialektal zonalarda kontaktologiya masalasining badiiy adabiyotdagi xususiyatlari 27
Dilnoza Radjabova. Qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari shakllanishining nominatsion-motivatsion xususiyatlari 30
Mastura Karimova. Antroponimlar alluziv nom sifatida 32
Munajatxon Mamajonova, Nilufarxon Mahmudova. "Sayohatnoma"da miqdor anglatuvchi birliklarning o'rni 34
Muslimjon Nasirov, Malikaxon Meliq'ziyeva. O'zbek tili radioaloqa sohasida birlikma-terminlar 37
Taxmina Mansurova. Kognitiv tahlil doirasida bog'lovchi fe'llarning leksik-semantik imkoniyatlari 40
Xalida Avilova. O'qish ko'nikmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar 42
Saodat Kambarova. Adabiy ta'limda adabiy-nazariy tushunchalar va ilg'or pedagogik tafakkur tadriji 44
Bahora Jo'raxolova. Frazologik olam tasvirida konseptual metaforaning o'rni 46
Atag'ulla Satbayev. Sog'inbo'y Ibrohimov she'riyatida qushlar obrazining badiiy talqini 49
G'ulomjon Atadjanov. Istiqloq davri o'zbek adabiyotida tarixiy drama janri 50
Dilnoza Shermuhamedova. The ways of formation of students' individual work in the digitally integrated education 51
Feruzakhon Yunusova. Mobile-assisted language learning approaches and strategies 54

KICHIK TADQIQOT

Mastona Yuldasheva. Semantic features of automotive terms in the English and Uzbek languages 55

METODIKA. OPYIT

Dilyara Zaripova. Изучение винительного падежа с применением языка-посредника на уроке русского языка как иностранного 57

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Умида Пулатова. Процессуальные документы: анализ и выводы 61

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Надира Султонова. Использование метода комментированного чтения при анализе художественного текста 63
Аслбек Эргашев. Ролевые игры на уроках литературы 65

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Александра Екабсонс, Лазокаатхан Хасанханова. Махмудходжа Бехбуди как мультикультурная личность и феномен эпохи 66
Бахтиёр Гафуров. Лингвистическое исследование афоризмов о медицине 69
Муяссар Комилова. Анализ учебно-нормативного и методического обеспечения в военно-академических лицах 70
Анна Курчастова. Жанровые традиции семейной саги в романе Марины Степновой «Женщины Лазаря» 74
Виктория Гимадетдинова. Антропоцентрическая направленность лингвистики креатива 76

ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

Анара АХМЕДОВА. «Доброта спасёт мир» (Книга – источник добра) 79

ВНЕАУДИТОРНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

Фарида Умарова. Служебные части речи 80

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Рануша Атаева. Совершенствование системы тренингов по обучению русскому языку 84
Элина Абдуллаева. Русский язык в Узбекистане на современном этапе 86

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

Феруза Фаизова. Новый формат сотрудничества между вузами России и Узбекистана 88

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.

4) *to be* + adverb: *It was long ago* (P. Abrahams). *He is here* (Voynich). *It was far away now* (Ibid).

5) *to be* + numeral: *She was eighteen years of age bright, timid and full of the illusions of ignorance and youth* (Th. Dreiser). *He had left when he was fifteen* (P. Abrahams).

6) *to be* + participle: *Yes I was surprised to hear that she had it in her hand when she died* (Conan Doyle). *For all he knew she might even be married* (P. Abrahams).

7) *to be* + prepositional phrase: *But it was hard to get hold of anything except his mother and she was out of setting* (P. Abrahams). *The Duke was in charge of the beer* (Ibid).

8) *to be* + infinitive: *The best thing he could do was to get out of here* (P. Abrahams). *Lanny knew that all he had to do was to lower his eyes or look away – any gesture of defeat would have done – and the man would tell him go* (Ibid). *The best thing of course is to lie on the grass* (P. Abrahams).

Yuqoridagi tahlil natijalari ko'rsatib turganidek, bog'lovchi fe'llar ingliz tilida o'zlarining qator grammatik-semantik va stilistik paradigmalar bilan ajralib turadi. Bog'lovchi fe'llarning aynan shu xususiyatlari tahlilida kognitiv tilshunoslik imkoniyatlaridan foydalanish lisoniy tafakkur va lisoniy mentalitetning ayrim muammolarini jonli nutq namunalari misolida hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasi – Toshkent, 1997.
2. Аксененко И. Предлоги английского языка – Москва, 1956.
4. Apolova M.A. Specific English. – Moscow: International relations, 1977.
5. Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики // Хорижий филология. – Самарканд: СамГИИЯ, 2007. – №3(24). – С. 5–6.
6. Абдуразаков М. Очерки по сопоставительному изучению разнотипных языков. – Ташкент, 1973.
7. Акбаров С.А. Лингвистические средства и когнитивно-прагматическая значимость художественного портрета: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2005.
8. Ашурова Д.У. Взаимодействие когнитивной лингвистики, стилистики и интерпретации текста // Филология масалалари. – Ташкент: УЗГУМЯ, 2003. – № 2. – С. 40.
9. Аксененко И. Предлоги английского языка. – Москва, 1956.
10. Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А. Язык и общество. – Ташкент: Фан, 2002.
11. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. (Sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
12. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – Москва: Высшая школа, 1983.
13. Nurmanov A. Maxmudov N. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1992.
14. Nurmanov A. Til haqida sintaktik nazariyalar. – Toshkent, 1988.
15. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1977.
16. Чейф У. Значение и структура языка. – Москва, 1975.

Xalida AVILOVA,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili
amaliy fanlar kafedrasini mudiri, katta o'qituvchi*

O'QISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI MUHIM OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tilni o'qitish va o'rganishda o'qish ko'nikmasiga ta'sir etuvchi omillar haqidagi fikrlar tahlil qilingan hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'qish ko'nikmasi, o'qishga ta'sir etuvchi omillar, o'qishga oid nazariyalar, motivatsiya, o'qish strategiyalari.

Annotation. In this article, opinions about the factors affecting reading skills in foreign language teaching and learning are analyzed and recommendations are developed.

Keywords: reading skill, factors affecting reading, theories about reading, motivation, reading strategies.

Аннотация. В данной статье анализируются мнения о факторах, влияющих на навыки чтения при обучении и изучении иностранного языка, и даются рекомендации.

Ключевые слова: навык чтения, факторы влияющие на чтение, теории о чтении, мотивация, стратегии чтения.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitishni sifat jihatidan yuqori darajaga olib chiqish xorijiy til o'qitish sohasi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Xorijiy til o'qituvchilari dunyoning qaysi nuqtasida ishlamasin, til materiallarini tayyorlash va ulardan foydalanish hamda o'z auditoriyasiga mos o'qitish tamoyillari haqidagi qarashlarini bir-birlari bi-

lan o'rtoqlashishga intiladi. Albatta, til materialini tanlash, tayyorlash va qo'llash jarayoni juda ko'p omillarga bog'liq, ayniqsa, o'qish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan materiallar juda muhim o'rin egallaydi.

Xorijiy tillarni o'qitishda "o'qish" tushunchasi haqida bir qancha ilmiy-metodik ta'riflar mavjud. I.M.Berman va V.A.Buxbinbera "O'qish" tushunchasiga quyidagicha

ta'rif beradi: "o'qish deganda, harfiy belgilarda ifodalan-gan nutqiy axborotni idrok etish va uning mazmunini payqash jarayoni tushuniladi" [1: 11]. Z.I.Klichnikova ham aynan shu kabi ta'rif keltiradi: "axborot yozma (grafik) kodlar orqali ifodalanganda u o'qib tushuniladi" [2: 6]. J.Alderson o'qishni quyidagicha ta'riflaydi: "o'qish yoqimli, qizg'in shaxsiy faoliyat bo'lib, undan zavq olish mumkin va bu faoliyat turiga butunlay sho'ng'ib ketish mumkin [3]. O'qish har bir inson uchun turli ma'noga ega. Ayrimlar uchun yozilgan belgilarni tanish bo'lsa, boshqalar uchun talaffuz va gapirishni mashq qilishni anglatadi. Biroq "o'qish" har doim ham aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu faoliyat turi bilan biz har kuni to'qnashamiz va u bizning hayotimizning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi ta'riflarga ko'ra, o'qish bu – harfiy belgilarda ifodalan-gan nutqiy axborotni idrok etish va uning mazmunini payqash jarayoni. O'qish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lib birinchi bosqichi – yozma matnni idrok etish; ikkinchi bosqichi – matndagi til materialining mazmunini cha-qish va uchinchi bosqichi – matnni o'qiyotgan shaxs ruhiy holatida ro'y beradigan o'zgarishlarni o'z ichi-ga olgan jarayondir. Kundalik hayotda yashash, bilim olish va o'qib zavqlanish maqsadlari "o'qish"ning asosiy maqsadlaridir.

Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar uchun o'qish ko'nikmasi eng muhim ko'nikma hisoblanadi, chunki ularda o'rganilayotgan tilda til sohiblari bilan jonli muloqotga kirish imkoniyati juda kam. Biroq o'qish ko'nikmasini takomillashtirish bir qancha muhim omil-larga bog'liqdir. XX asr boshlaridan o'qish ko'nikmasiga oid bir qancha nazariyalar yaratildi va bu nazariyalar xorijiy tildagi matnlarni o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganishga qaratildi. Ushbu yo'na-lishda Vigotskiy, Harold Harber, Kinch, Rumelxart (1980), Karrel (1981) va Xudsonlar (1982), Gilakjani va Sabouri, K.L.Sanford, Y.V.Nosonovich, Milrud kabi ye-takchi olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib bordilar.

O'qish bilan bog'liq bir qancha nazariyalar va ular-da tahlil etilgan o'qishga ta'sir etuvchi omillarning mux-tasar tahlilini ko'rib chiqishni joiz deb bildik.

Sxema nazariyasi (Scheme theory) 1932-yilda Barlet tomonidan yaratilgan. Mazkur nazariya vakillari Rumelxart (1980), Karrel (1981) va Hudsonlar (1982) o'qish ko'nikmasini shakllantirish bir qancha omillar bilan bog'liqligini o'z tadqiqotlarida o'rgangan. Olimlar "Sxema nazariyasi"da o'quvchilarning oldingi bilimlari-dan samarali foydalanish matndagi ma'lumotlarni yax-shi o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi deb hi-soblaydi. Barlet bu nazariyada "sxema" terminiga "matn bilan ishlashda oldingi bilim va ko'nikmalardan sama-rali foydalanish", degan ta'rifni beradi [4: 130–134]. Nazariyada ilgari surilgan g'oyaga asosan yozma mat-nning o'zi hech qanday ma'noga ega emas. Aksincha, matn o'quvchining oldingi bilimlarini faollashtirish yor-damida yangi ma'lumotni o'zlashtirishga yo'nalish beradi. O'quvchining oldingi bilimlari va oldingi bilim-lardan tuzilgan strukturalar sxemata deb nomlanadi. Nazariyaga ko'ra, matnni tushunish o'quvchi va matn o'r-tasida ro'y beradigan interfaol jarayon bo'lib, matn-

dagi ma'lumotni yaxshi o'zlashtirish o'quvchining o'z bilimlarini faollashtirishni taqozo etadi. Olimlarning fikri-ga asosan, o'qib tushunish ikki yo'nalishda sodir bo'la-di: pastdan-yuqoriga va yuqoridan-pastga. Pastdan-yuqoriga jarayoni matndagi aniq ma'lumotlar bilan ish-lash davomida faollashsa, yuqoridan-pastga jarayoni umumiy ma'lumot olish bosqichida faollashadi. Bu ikki jarayon bir vaqtning o'zida bir-birining o'rnini to'ldirgan holatda sodir bo'ladi va interfaol jarayon deb yuritiladi [4: 130–134].

O'qish ko'nikmasi bilan bog'liq nazariyalardan yana biri **Kognitiv nazariya** (Cognitive theory) deb nomla-nadi. Ushbu nazariya Harold Harber tomonidan yaratil-gan bo'lib, unga asosan, o'qilgan ma'lumotni tushunish bir qancha kognitiv jarayonlar ishtirokini talab etadi. Matndagi gap mazmunini tushunish uchun, o'quvchi gapdagi so'zlarni ko'zi orqali o'qishi, ularning fonologik, orfografik, semantik ma'nolarini aniqlashi hamda ush-bu ma'nolardan foydalangan holda gapning mazmunini tushunishi lozim. Aynan shu jarayonlar orqali o'quvchi yaxlit matn mazmunini anglash va matnda ifodalan-gan mazmunni tushunishga intiladi [5: 10–16]. O'qish haqidagi bir qancha nazariyalar mavjudligiga qara-masdan ularning barchasi o'qishga ta'sir qiluvchi eng asosiy omil sifatida kognitiv jarayonlarni ko'rsatib o'ta-di. O'quvchi mutolaa qilish jarayonida o'qish, o'ylash, eslab qolish, tushunish, xulosa chiqarish, tahlil qilish kabi bir qancha kognitiv jarayonlarni o'tkazadi. O'qish yozma shaklda ifodalan-gan harfiy belgilarni tushunish orqali matnda ifodalan-gan mazmunni tushunish jarayoni demakdir. O'qish 3 kognitiv bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi: yozma ravishda ifo-dalangan harfiy belgilarni tushunish (decoding), maz-munni tushunish (comprehension), o'qilgan ma'lumotni yodda saqlash (retention). O'quvchi yuqorida ta'kidlab o'tilgan kognitiv bosqichlar orqali yangi ma'lumotni qisqa va uzoq muddatli xotirada saqlab qoladi. Biroq, ma'lumotni uzoq muddatli xotirada saqlash va, keyin-chalik, olingan ma'lumotdan unumli foydalanish sama-rali o'qish strategiyalaridan foydalanishni talab etadi. Kognitiv nazariya tarafdorlarining fikriga asosan, yangi o'quvchilarning matnni o'zlashtirishida xulosa chiqa-rish, matn xususiyatlaridan kelib chiqib matn turlarini farqlash, taxmin qilish, yashirin ma'noni fahmlash kabi o'qish strategiyalarining takomillashtirilishi talab etiladi. O'quvchilar bu kabi strategiyalardan matn mazmunini tushunishda foydalanadi [6].

Talabalarning xorijiy tillarda o'qish ko'nikmasiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar haqidagi nazari-yalardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mum-kin. Filologik yo'nalishda tahsil olayotgan OTM talaba-larining o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda talabaning til bilish darajasi, fikrlash doirasi, o'qish qobiliyati va qiziq-ishi kabi ichki omillar katta ahamiyatga ega. Aksincha, til bilish darajasining pastligi, so'z boyligining kamligi ularda matnlar mazmunini tushunishda katta qiyin-chiliklarga olib kelgan. Shuningdek, matnlar bilan ish-lash jarayonida grammatik qoidalaridan ko'ra mazmunni ochib berishda kerakli bo'lgan fikrlash doirasining keng bo'lishi o'quvchining muvaffaqiyati uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Берман И.М., Бухбинбер В.А. Очерки методики обучения чтению на иностранных языках. – Киев: Высшая школа, 1977.
2. Клычкова З.И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке. 2-изд. – Москва: Просвещение, 1983.
3. Alderson J.C. Assessing reading. – Cambridge: C.U.P., 2000.
4. Shuying Ann. Scheme theory in reading // Theory of Practice in Language Studies, 2013, Vol. 3. No.1, pp.130–134.
5. Paul van den Broek, Anna Helber. A cognitive view of reading comprehension: Implications for reading difficulties // Learning disabilities research and practice, 2014, 29 (1), pp. 10–16.
6. Wanzek, et al., 2010; Swanson, Edmonds, Hairrell, Vaughn, & Simmons, 2011.

Saodat KAMBAROVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ADABIY TA'LIMDA ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALAR VA ILG'OR PEDAGOGIK TAFAKKUR TADRIJI

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriyalarni o'zlashtirish sifati o'qituvchining adabiy ta'lim jarayonini malakali tashkil etishi va ularni o'zlashtirishni boshqarish qobiliyatiga bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, "muallif – asar – kitobxon" kabi o'zaro bog'liq tushunchalarni o'rganish badiiy asarni estetik baholash uquviga ega kitobxonni tayyorlashga hissa qo'shishi masalasi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar. Muallif, asar, kitobxon, muallif pozitsiyasi, adabiy-nazariy tushunchalar, retsipient-kitobxon, muallif-ijodkor.

Аннотация. В статье подчеркивается тот факт, что качество усвоения учащимися литературно-теоретических понятий и эстетических категорий зависит от умения учителя грамотно организовать процесс литературного образования и управлять их усвоением. Также изучение взаимосвязанных понятий типа «автор – произведение – читатель» будет способствовать подготовке читателя с умением эстетически оценивать произведение искусства.

Ключевые слова. Автор, произведение, читатель, авторская позиция, литературоведческие концепции, реципиент-читатель, автор-творец.

Annotation. The article analyses the fact that the quality of students' acquisition of literary and theoretical concepts and aesthetic categories depends on the teacher's ability to competently organize the process of literary education and manage their acquisition. Also, the study of interrelated concepts such as "author – work – reader" will contribute to the preparation of a reader with the ability to appreciate the aesthetic work of art.

Key words. Author, work, reader, author's position, literary-theoretical concepts, recipient-reader, author-creator.

Adabiy ta'lim mazmunini takomillashtirish yo'llarini belgilash, muhim metodik muammo – adabiyot nazariyasini o'rganish yo'llari bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Bizningcha, shunday tizim yaratilishi kerakki, adabiyotni o'rganish jarayoni, bir tomondan, ularning ichki, o'zaro bog'liqligini aks ettirsa; ikkinchi tomondan esa, adabiy-nazariy tushunchalar va estetik kategoriyalar shunday algoritm bo'lib, ulardan foydalanish nazariy bilimlarni hayotda mustahkam o'zlashtirish va ongli ravishda qo'llashni hamda insoniy fazilatlarni kamol toptirishni ta'minlashga xizmat qilishi muhim.

Professor Q.Yo'ldoshevning izlanishlarida to'g'ri qayd etilganidek, "Endilikda adabiyot nazariyasi bo'yicha beriladigan bilimlar ham o'quvchilarning tafakkurini sinash va uni qiynash vositasi emas, balki badiiy asarni o'qish va tahlil etishga ko'mak beradigan ma'lumotlar tarzida qaraladigan bo'ldi... Aslida, adabiyot tarixiga daxldor biror faktni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy faktlarning xronikasini

bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarni o'z tabiatiga singdirib ola bilgan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir" [4; 88-b.]. Fikrimizcha, o'quvchilarda axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish bevosita badiiy asarni tahlil qilish va sharhlash amaliyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "muallif – asar – kitobxon" tizimida amalga oshirilishi hamda fundamental kategoriya va tushunchalarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, filologik ta'limda "muallif", "asar", "kitobxon" kategoriyalariga adabiyotning san'at turi sifatidagi mohiyatini anglash uchun zarur bo'lgan konseptual muammolar sifatida qaraladi. Bu esa maktabda adabiyotni o'rganishga estetik yo'nalish beradi, fanni o'qitish metodikasini boyitish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Ilmiy tushunchalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarda san'atning o'ziga xos xususiyatlarini idrok etish, san'atning boshqa turlari va ijtimoiy hayot namunalari, keng ko'lamlı madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga, so'zning estetik jozibasi orqali ijodiy qobiliyatlari ochilishiga imkon yaratiladi. Bu borada rus adabiyotshunos